

Axborot hisoblash markazi hodimlari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha
“Korrupsiya yo‘q” shiori ostida o‘tkazilgan seminar
BAYONNOMASI №1

“12” may 2026 y.

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:	Markaz boshlig‘i	T.K. Ubaydullayev
Ishtirok etdi:	Markaz boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari	T.R. Raxmatov
	Bosh hisobchi	R.Sh.Ergashev
	Kadrlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha etakchi mutaxassis	M.Sh. Nizamova
Qatnashdilar:	Markazning bo‘lim boshliqlari va xodimlari	

KUN TARTIBI:

Korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sabablari, oqibatlari va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha.

Mavzu yuzasidan markaz boshlig‘i T.K. Ubaydullayev so‘zga chiqib, Korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sabablari, oqibatlari va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha tanishtirdi. Shuningdek, ma‘ruzada korrupsiyaga qarshi kurashish hozirgi kunda davlat siyosati darajasida ekanligi, doimiy ravishda xodimlarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, markazda korrupsiya holatlarini oldini olish va unga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish kerakligini ta‘kidlab o‘tdi.

Markaz boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari T.R. Raxmatov o‘z ma‘ruzasida markazda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun bajarilayotgan ishlar va kelgusidagi rejalarni yig‘ilish qatnashchilariga tushuntirib o‘tgan holda, markazda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, shunga o‘hshash holatlar aniqlangan holda uni oldini olish choralarini ko‘rish kerakligi ta‘kidlandi.

Yig‘ilish jarayonida ishtirokchilarning qiziqtirgan savollariga javob va tavsiyalar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yig‘ilish,

qaror qiladi:

1. “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risi”dagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining maqsad va vazifalari bo‘yicha markaz ishchi va xodimlari o‘rtasida targ‘ibot ishlarini doimiy ravishda davom ettirilishi markaz mas‘ullari va bo‘lim rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

2. Markazda biriktirilgan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat faoliyatiga mas‘ul xodim tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat kuchaytirilsin va ishchi-xodimlar o‘rtasida doimiy ravishda tushuntirish ishlari olib borsin.

3. Yuqoridagi taqdimnoma barcha bo‘lim xodimlari o‘rtasida tanishtirilsin.

Bayonnoma olib boruvchi:



M.Sh. Soliyeva